ҚАЗАҚСТАН РЕСПУБЛИКАСЫ
«ҰЛТТЫҚ ҚҰНДЫЛЫҚТАР АКАДЕМИЯСЫ»
РЕСПУБЛИКАЛЫҚ ҚОҒАМДЫҚ БІРЛЕСТІГІНІҢ
ТҮРКІСТАН ОБЛЫСТЫҚ ФИЛИАЛЫ



Қазақ мәдениетінің, қазақ руханиятының қара нары, қазақ халқының ұмыт болған ұлттық мәдениеті мен әдеп-ғұрпын қайта түлеткен көрнекті мемлекет қайраткері, белгілі этнограф Өзбекәлі Жәнібековтың 94 жылдығын атап өту мақсатында өткізілген ***«ҰЛТ РУХАНИЯТЫ ЖӘНЕ ӨЗБЕКӘЛІ ЖӘНІБЕК ТАҒЫЛЫМЫ»*** атты
Халықаралық форумының
МАТЕРИАЛДАРЫ

Түркістан -2025 жыл, 17 қазан

14.PREDMETLARARO INTEGRATSIYA VOSITASIDA METAPREDMET TUSHUNCHALARINI O‘RGATISH. Science and innovation, 2(Special Issue 14), 658-663.

ESKI O‘ZBEK ADABIY TILIDA “HUKMDOR” MA’NOSINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLAR (SEB’A-I SEYYAR ASARI MISOLIDA)"

LEXICAL UNITS EXPRESSING THE MEANING OF "KING" IN OLD UZBEK LITERARY LANGUAGE (IN THE EXAMPLE OF THE WORK *SEBʿA-I SEYAR*)

ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, ОБОЗНАЧАЮЩИЕ ЗНАЧЕНИЕ «ПРАВИТЕЛЬ» В ДРЕВНЕУЗБЕКСКОМ ЛИТЕРАТУРНОМ ЯЗЫКЕ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «САБЪАИ САЙЁР»)

Xo‘janiyazova Shahnoza Satimboyevna
Toshkent amaliy fanlar universiteti
dotsent, f.f.f.d. (PhD)
shahnozaxon8686@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” asaridagi ijtimoiy-siyosiy guruhga mansub “hukmdor” semasini ifodalovchi leksik birliklar haqida so‘z yuritiladi. Dostondagi o‘z va o‘zlashgan qatlamga oid so‘zlarning etimologik xususiyatlari hamda ularning leksik-semantik jihatdan ma’nolari ochib berilgan. Darhaqiqat, ushbu guruhga mansub bo‘lgan istolohlar lingvistik va pragmatik jihatdan o‘rganilgan va leksik birliklarning ma’no kengayishi hamda torayishi jihatidan yuz berish hodisalari ham tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *istiláh, terminlágiya, šáh, pádšáh, sultán, xan.*

Annotation. This article discusses the lexical units representing the meaning of "ruler" belonging to the group of socio-political terms in Alisher Navoi's work "Sab'ai Sayyor". The etymological features of the words related to the native and assimilated strata in the epic and their lexical and semantic meanings are revealed. In fact, the terms belonging to this group were studied linguistically and pragmatically, and the phenomena of expansion and narrowing of the meaning of lexical units were analyzed.

Key words: *term, terminology, the variety of ruler names in the work: šáh, pádšáh, sultán, xan.*

Аннотация. В данной статье рассматриваются лексические единицы, относящиеся к группе социально-политических терминов со значением «правитель» в произведении Алишера Навои «Сабъаи сайёр». Раскрываются этимологические особенности собственных и заимствованных слов,

встречающихся в поэме, а также их лексическое и семантическое значение. Действительно, термины данной группы изучены с лингвистической и прагматической точек зрения, проведён анализ явлений расширения и сужения значений лексических единиц.

Ключевые слова: *термин, терминология, шах (šáh), падишах (pádšáh), султан (sultán), хан (xan).*

Qadimgi turkiy til so‘zlarining aksariyati eski o‘zbek adabiy tili davrida, asosan, hech qanday o‘zgarishlarsiz, ayrimlari fonetik yoki semantik o‘zgarishlar bilan qo‘llangan[3]. XI-XIV asrlarda yaratilgan qo‘lyozma manbalar tilida iste’mol qilingan 700ga yaqin ijtimoiy-siyosiy terminlarning 640dan ortig‘i Navoiy asarlarida kuzatilishi ta’kidlangan[4]. Ijtimoiy-siyosiy sohaga oid lug‘aviy birliklarni diaxron aspektda terminologik nuqtai nazardan o‘rgangan H.Dadaboyev ijtimoiy-siyosiy terminologiya leksikaning faol qo‘llanuvchi qatlamlaridan biri bo‘lib, u ma’lum bir tarixiy formatsiyani belgilab beruvchi tarixiy-ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy, madaniy, diniy kabi bosh faktorlar ta’sirida shakllanishi va rivojlanishini ta’kidlaydi[5]. Ijtimoiy – siyosiy leksika qo‘llanish sohasi, uslubiy belgisi, kelib chiqishi kabi turli jihatlari ijtimoiy – siyosiy xarakterdagi voqeliklarni o‘zida aks ettirgan lug‘at tarkibining o‘zgaruvchan guruhidir.[6]

Har qanday ijtimoiy-siyosiy leksemaning tarkib topishi va rivojlanishi muayyan ijtimoiy tuzum bilan bog‘liq holda rivojlanadi. Shu boisdan, ijtimoiy-siyosiy leksemalarni diaxron va sinxron jihatdan o‘rganish zarur. Xususan, adibning “Sab’ai sayyor” dostonidagi davlat bosh hukmdor tushunchasini ifodalovchi ***šáh, pádšáh, sultán, salátin, xan, xaqan*** kabi leksik birliklar ma’nodosh, ayrim o‘rinlarda farqli tarzda ishlatilgan.

“Ba’zi Sharq mamlakatlarida mutlaq hokimlik qiluvchi hukmron unvoni va shunday unvonga ega shaxs, shoh” (O‘TIL, III, 282) ma’nosidagi *pādšāh* o‘zlashmasi “DTS”da *pād(i)šāh* (396), “FZT”da 4 ma’noda: 1) taxt sohibi, toju taxt, mutloq hukmdor; 2) farmonravo, sohibixtiyor; 3) g‘olib, muzaffar; 4) xudo (73), “ANATIL”da *pādšāh//pādšā*: 1) shoh, podshoh; 2) Olloh, Tangri, Xudo (II,577) ma’nolarida qo‘llangan. “Doston matnida ham “shoh, podshoh” ma’nosida ishlatilgan:

Šáhlarkim, jahánpanáh edilär,

[3]Насыров И. Лексика “Маджалис ан-нафаис” Алишера Навои. Автореф. дисс. …канд. филол. наук. –Ташкент, 1980. 5-б.

[4]Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент. 1991; Дадабоев Ҳ. Алишер Навоий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминларнинг эски туркий обидалар лексикасига муносабати. Алишер Навоий туғилганининг 550 йиллигига бағишланган илмий конференция материаллари. –Тошкент, 1991. 68-70 б.

[5] Дадабоев Ҳ. Алишер Навоий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминларнинг эски туркий обидалар лексикасига муносабати // Алишер Навоий туғилганининг 550 йиллигига бағишланган илмий конференция тезислари. – Тошкент: Фан, 1991.– Б. 68.

[6] Исоқова З.М. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асаридаги ижтимоий – сиёсий лексика: Филол. фанлари номзоди...дисс. автореф. – Тошкент. 2010. – Б. 8

Bari álamуa pádšáh edilär(616).

“Oliy hukmdor, podsho” (O‘TIL,III,584) semasidagi arabcha *sultán* o‘zlashmasi eski o‘zbek adabiy tilida 1) sulton, shoh, hukmron; 2) ma’shuqa sevgi ma’nolarida voqelangan (ANATIL,121-122). H.Dadaboyevning ta’kidlashicha, mazkur termin Markaziy Osiyoda to mo‘g‘ul istilosiga qadar buyuk davlatlarning eng oliy unvoni sifatida iste’molda bo‘lgan. Mo‘g‘ullar davlati inqirozga yuz tutgach, kelib chiqishi Chingiziylar sulolasiga mansub har bir hukumat vakilining unvoni sifatida qo‘llangan. Ushbu unvon Temuriylar boshqaruvi davrida ham keng qo‘llanishda bo‘lib, avvalgi maqomi yana tiklangan. *Sultān* unvoni bu davrda juda faxrli, sharafli unvon bo‘lib, Temuriylar davlatining so‘nggi vakillaridan Husayn Boyqaro nomiga ham shu oliy unvonning qo‘shib aytilishi rasm bo‘lgan[7]. Doston matnida ham ayni shu ma’noni ifodlagan: *Sultán Husayn Bahádirxan xallada mulkahu va sultánahu midhati kosin urmaq(321)…*Ko‘plik shakli *salātin* tarzida uchraydi:

Ayšlar soz ayladi payvast
Ki, salátindin elgä bermadi dast.

Xaqan so‘zi keng ma’noda “monariya boshlig‘i”, tor ma’noda Xitoy imperatori mazmunlarini anglatadi[8]. *Xan/xaqan* leksemasi turkiy qabila hamda mo‘g‘ul xalqlarining yirik qabilaviy birlashmalari yohud davlatlarni boshqargan shaxsga nisbatan ishlatilgan. *Xaqan* termini birinchi marta eramizning 312-yiliga oid Xitoy yilnomalarida qayd qilingan[9]. N.A.Baskakov, E.Fasmer kabi tadqiqotchilar *xan* va *xaqan* leksemalari aslida xitoycha*“kuan”,* ya’ni *“oliy hukmdor”* va *“ke-kuan”,* ya’ni *“ulug‘ xon”* ma’nolarida ishlatilganini ta’kidlaydi[10]. Turk hukmdorlari *xon* leksemasini *xoqon* unvoni bilan bir qatorda qo‘llagan bo‘lsalar ham, bu leksemalar ma’nosi va qo‘llanilishiga ko‘ra bir-biridan muayyan darajada farq qilgan.

Qadimgi turkiy tilda *xan* istilohi *qan* shaklida “hukmdor”, “yo‘lboshchi, boshliq” (DTS,417), “Qutadg‘u bilig” hamda “Devonu lug‘otit turk” asarlarida asl ma’noda: *Bu Tawğač Qara Buğra xanlar xanï* (DTS,636); *Xandan basut* (yordam) *tilärlär* (I,427) ishlatilgan. Mazkur istiloh “kichikroq davlatning mutlaq hukmdori”, “shoh” ma’nosini anglatib, *qan* tarzida talaffuz qilingan (PDP, 411). Demak, ma’lum bo‘ladiki, *x* ning *q* tovushiga o‘tishi hodisasi XI asrda yuz bergan[11]. DTSda *qan* va *xan* shakllari (417, 636), qirg‘iz tilida asosiy shakl *kan*

[7] Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI–XIV вв. – Ташкент, 1991. – С. 64.

[8] Ўрозбоев А.Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. Филол. фан. д-ри (DSc). дисс... –Тошкент. 2018. –Б. 29.

[9] Мўминова О. Ўзбек тилида мансаб ва унвон номларининг лексик-семантик таркиби. – Тошкент: Алоқачи, 2009. – Б.15.

[10] Баскаков Н.А. Тюркизмқ социальная терминология в “В слове о полку Игореве”// Turkologika (К 70-летию академика А.Н.Кононова). – Л., 1976. – С. 225-226; Фасмер Э. Этимологический словарь русского языка. – Т.4. – С.221.

[11] Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузий” лексикаси. Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 172.

bo‘lib (KRS, 338), *xan* so‘zidan *kan* so‘ziga havola berilgan (KRS, 829). Shuningdek, bu so‘z dastlab *qan* tarzida talaffuz qilingan, keyinchalik so‘z boshlanishidagi *q* undoshi *x* undoshiga almashgan; o‘zbek tilida *a* unlisi *ä* unlisiga almashgan: *qan > xan > xän.* Yuqoridagi manbalarda mazkur istiloh turkiy deb qaralgan, ammo L.Z.Budagov lug‘atida mo‘g‘ulcha *qaan* so‘zining qisqargan shakli deb izohlangan (SSTTN, I, 527).

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *xan* leksemasining ma’no kengayishi yuz berib, quyidagi ma’nolarni ifodalaydi: 1) turkiy va mo‘g‘ul xalqlari hukmdorlari unvoni; 2) xonlik qilgan, xon lavozimidagi shaxs ismiga qo‘shilib, unvonni ifodalaydi; 3) erkak va ayollar ismiga qo‘shilib, hurmatni ifodalaydi (O‘TIL, IV, 410). *Xan* va *pravitel* (hukmdor) (DTS,636), “xon, sulton, amir; Xitoy va Turkiston podsholarining unvoni” mazmunida kelgan[12].

Eski o‘zbek adabiy tilida 1) dasturxon; 2) risq, yemak, taom; 3) planeta ma’nolarini anglatuvchi *xan I* leksemasi “podshoh, xon” (ANATIL, III, 411-412) sememasidagi *xan II* bilan omonimikni yuzaga keltirgan. Ushbu istiloh “S.S” asarida faqat “podshoh, xon” semasida qo‘llangan:

Mayl qïldï burun Xitá xani,
Bay’ qïlmaq berib bahá anï.

Xaqan istilohi hozirgi o‘zbek adabiy tilida “qadimgi turkiy xalqlar va mo‘g‘ullar hukumatida yirik davlat boshliqlarining eng oliy unvoni va shu unvonni olgan shaxs” (O‘TIL, IV, 417), qadimgi turkiy tilda “yirik davlatning mutlaq hukmdori”, “ulug‘ xon” ma’nolarini anglatgan ushbu leksema asli *qaγan* tarzida (PDP, 409), keyinroq *xaqan* tarzida talaffuz qilinganligi qayd etilgan. DTSda *qaγan* va *xaqan* shakllari (405,636), “Devon”da faqat *xaqan* ko‘rinishi uchraydi (III, 172). L.Z.Budagov bu so‘zni asli mo‘g‘ulcha ekanligini ta’kidlaydi (SSTTN, II, I). Bu lug‘atda *qan || xan* so‘zi *qaan* so‘zining qisqarishi bilan yuzaga kelgan deyiladi. DTSda *qaγan qan* (верховный правитель) (405) misoli asosida quyidagicha fikr yuritish mumkin: Dastlab *qaγan qan* birikmasidagi *qaγan* so‘zining *-g‘an* qismi talaffuz qilinmay, uning o‘rniga *-qa* qismidagi *a* unlisi cho‘ziq talaffuz qilingan va *qan* qismiga birlashtirilgan. Shundan keyin leksema boshlanishidagi *q* undoshi *x* undoshiga almashgan, so‘ngra *a:* unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan; o‘zbek tilida *a* unlilari *ä* unlilariga almashgan: *qaγan qan > qa:qan > xaqan > xäqän* (O‘TEL, I, 402-403).

Navoiy *xan* terminini Dashti Qipchoq hukmdoriga, *haqan* istilohini esa Chin (Sharqiy Turkiston) hukmdorlariga nisbatan qo‘llagan[13]. Eski o‘zbek adabiy tilida “shoh, xonlar xoni; xoqon” (ANATIL, III, 422-423) ma’nolarida ishlatilgan:

Oyla xaqanni tarumar etti,

[12] Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент, 1991. – С. 62.

[13] Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 68.

Kim, sipehr allïdïn firár etti.

Demak, *xan* va *xaqan* leksemalarini diaxron aspektda o‘rganganda ma’no ottenkasining xususiylikdan umumiylikka tomon siljishi kuzatildi. *Xan* so‘zi muayyan bir qabilaning boshlig‘i ma’nosini anglatgan bo‘lsa, keyinchalik *xaqan* leksemasining sinonimi sifatida qo‘llangan. *Xaqan* leksemasi esa “xonlarning xoni” ma’nosini, ya’ni “qabilalar birlashmasining boshlig‘i” tushunchasini bildirgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” asaridagi “hukmdor” ma’nosini anglatuvchi leksik birliklar boy semantik qatlamga ega bo‘lib, ular orqali XV–XVI asrlar siyosiy-ijtimoiy tuzumining til vositasida ifodalanishi kuzatiladi. Asar so‘z boyligida turkcha, arabcha, fors-tojikcha leksik birliklar yonma-yon qo‘llangan. Ushbu birliklarning etimologik manbalari, semantik qatlamlari va kontekstual qo‘llanilishi asarda hukmdor shaxsining fazilatlari, diniy-madaniy maqomi hamda siyosiy lavozimini turlicha aks ettirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. X jildlik, VII jild. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2013. – B. 275-664.

2. Abduvalieva D. Alisher Navoiy tarixiy asarlari leksikasi. Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. – Toshkent, 2017. – B. 68.

3. Abdushukurov B. “Qisasi Rabg‘uziy” leksikasi. Filol. fan. dokt. ... diss. – Toshkent, 2017. – B. 172.

4. Баскаков Н.А. Тюркизмы сотциалная терминология в “В слове о полку Игореве”// Туркологика (К 70-летию академика А.Н.Кононова). – L., 1976. – S. 225-226.

5. Dadaboev H. Alisher Navoiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlarning eski turkiy obidalar leksikasiga munosabati // Alisher Navoiy tug‘ilganining 550 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy konferensiya tezislari. – Toshkent: Fan, 1991.– B. 68.

6. Дадабаев Х. Общественно-политическая и сотсиално-экономическая терминология в тюркоязычных писменных памятниках XI–XIV вв. – Ташкент, 1991. – С. 64.

7. Isoqova Z.M. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asaridagi ijtimoiy-siyosiy leksika: Filol.fanlari nomzodi...diss. avtoref.– Toshkent. 2010.

8. Насыров И. Лексика “Маджалис ан-нафаис” Алишера Навои. Автореф. дисс. …канд. филол. наук.-Ташкент, 1980. 5-б.

9. O‘rozboev A. Ogahiyning tarixiy asarlari leksikasi. Filol. fan. d-ri (DSc). diss... – Toshkent. 2018. –B. 29.

10. Xo‘janiyazova Sh. Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasi. Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok (PhD). diss... – Toshkent, 2022. –B. 61.

Shartli qisqartmalar

ANAL – 2013. – 2006. Fozilov E.I. Alisher Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent.

ANATIL – 1983-1985. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. I-IV. – Toshkent: Fan.

DLT – Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. I-III. – Toshkent: Fan, 1960-1963. T. I. 1960. – 499 b.; T. II. 1961. – 427 b.; T. III. 1963. – 461 b.

DTS – Drevnetyurkskiy slovar. – L.: Nauka, 1969. – 676 s.

ESTYa – Севортян Э. Этимологический словар тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. – М: Наука, 1974. – 767 s.

PRS – Персидско-русский словарь / Составил: Б.В. Миллер. – М.: Гос. Изд., , 1953. – 668 s.

THTL – Dadaboev H. Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati. – Toshkent: Universitet, 2003. – 237 b.

O‘TEL – Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar). – Toshkent: Universitet, 2000. – 599 b.; O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (arabcha birliklar va ularning hosilalari). – Toshkent: Universitet, 2003. – 599 b.; O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (forscha-tojikcha birliklar va ularning hosilalar). – Toshkent: Universitet, 2009. – 282 b.

O‘TIL – O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy enseklopediyasi. 1-jild, 2006. – 680 b; 2-jild, 2007. – 688 b; 3-jild, 2007. – 688 b; 4-jild, 2008. – 606 b; 5-jild, 2008. − 592b.

ХУРШИД ДЎСТМУҲАММАД ИЖОДИДА АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ ОБРАЗИ

Рахмонова Хуршида
Алишер Навоий номидаги Тошкент
давлат ўзбек тили ва адабиёти университети
катта ўқитувчиси, PhD.

Аннотация. Қисса жанри ўзбек адабиётининг тарихий ривожланиш босқичларида алоҳида ўрин тутади. Мақолада истеъдодли адиб Хуршид Дўстмуҳаммаднинг тарихий мавзуда ёзилган “Ёлғиз” қиссаси жанрга хос назариялар асосида тадқиқ қилинган. Асарда бош қаҳрамон ижодкор шахс Абдулла Қодирийнинг мураккаб руҳияти, қайғулари, мақсадлари у яшаган давр муҳитига, адолатсизликларига қарама-қарши ўлароқ тасвирланади. Мана шундай ифодалар яққол кўринган ўринларга урғу

МАЗМҰНЫ

Алғы сөз 4
Турсунбаева Б.Б. 5
ҚҰТТЫҚТАУ
Икапова И. С..... 7
ӨЗБЕКӘЛІ ЖӘНІБЕК – ҰЛТТЫҚ ҚОЛӨНЕР МЕН МУЗЕЙ ІСІН ДАМЫТУШЫ
Төлегенов Е.М. 8
ҰЛТ РУХАНИЯТЫҢ АЙНАСЫ – ӨЗБЕКӘЛІ ЖӘНІБЕКОВ. ҰЛТТЫҚ ҚҰНДЫЛЫҚТАР ТҰҒЫРЫНДАҒЫ БІЛІМ МЕН ТӘРБИЕ
Halil ÇETİN..... 11
KAZAK AILE KÜLTÜRÜ VE ÇOCUK EĞITIMI: GELENEKTEN GELECEĞE KÖPRÜ
Жусупова М. М..... 12
ПАРТИЙНЫЙ И ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ДЕЯТЕЛЬ УЗБЕКАЛИ РОЛЬ ЖАНЫБЕКОВА В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЁЖИ
Kayumov O. S...... 18
KASALLIKLARNI DAVOLASH BILAN BOG‘LIQ SHOMON MAROSIMLARI FOLKLORI JANRLARI XUSUSIDA
Raxmonova M. R. 24
TARIXIY AFSONALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
Xo‘janiyazova Sh.S. 29
ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, ОБОЗНАЧАЮЩИЕ ЗНАЧЕНИЕ «ПРАВИТЕЛЬ» В ДРЕВНЕУЗБЕКСКОМ ЛИТЕРАТУРНОМ ЯЗЫКЕ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «САБЪАИ САЙЁР»)
Рахмонова Х...... 34
ХУРШИД ДЎСТМУҲАММАД ИЖОДИДА АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ ОБРАЗИ
Atayev A. P..... 40
O‘ZBEK TILIGA ARAB TILIDAN O‘ZLASHGAN TARIXAN QO‘SHMA SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI
Усмонов О...... 45
ҒУЛОМ ЗАФАРИЙ ДРАМАЛАРИДА ЖАДИДЧИЛИК ҒОЯЛАРИНИНГ ЁРИТИЛИШИ
Олим ОЛТИНБЕК 50
РАУФ ПАРФИ ИЖОДИДА ТУРКИСТОН МАВЗУСИ
Kayumova G. N...... 61
YARATILISH HAQIDAGI MIFLAR
Умирзакова А..... 66
ҚОРШАҒАН ОРТАДА ҚАҒАЗ ҚАЛДЫҚТАРЫНЫҢ ЖИНАҚТАЛУ ЖӘНЕ ҚАЙТА ӨҢДЕУ МӘСЕЛЕСІ
Байменова А. 72
ОТБАСЫ – ҚОҒАМНЫҢ АЛТЫН ДІҢГЕГІ
Тайтенова Ж.К. 74
ҰЛТТЫҚ ҚҰНДЫЛЫҚТАР – ҰЛТТЫҢ МӘҢГІЛІК ТІРЕГІ
Ахилбекова А..... 78
ҚАЗАҚ ТІЛІН ОҚЫТУДЫҢ ИННОВАЦИЯЛЫҚ ӘДІСТЕРІ \
Бейсекова А.Т..... 82